

**MAKTABGA TAYYORLOV YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING
RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi.

“University of business and sciensce”

Nodavlat oliy ta'lif muassasi o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabga tayyorlov yoshli ya'ni 6-7 yoshli bolalarning rivojlanishi ularning ta'lif tarbiyasining o'ziga hosligi hamda rivojlanish xususiyalari haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada maktabga tayyorlash uchun tashkil etiladigon ta'limiylar jarayonlar va ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri yoritilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена развитию детей 6-7 лет, особенностям их обучения и развития. Кроме того, в статье описаны образовательные процессы, организованные для подготовки к школе, и их влияние на развитие детей.

Abstract: This article is about the development of 6-7-year-old children, the peculiarities of their education and development. In addition, the article describes educational processes organized for school preparation and their impact on children's development.

Bilamizki maktabgacha ta'lif sohasi bugungi kundan tubdan isloh qilinayotgan sohalar qatorida desak adashmaymiz. Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lif tashkillotlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning qamrovi 85 foizni tashkil etmoqda. Bolalarning maktab ta'limga sifatli va samarali tayyorlash ularda hayotiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maktabgacha ta'lifning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lif nima degan savol tug'iladi maktabgacha ta'lif -3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lif tarbiya berish ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga

qaratilgan uzlucksiz ta'lif turi. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar bugungi kundan davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti, davlat xususiy sherikchilik shaklidagi maktabgacha ta'lif tashkiloti hamda xususiy shakllari o'z faoliyatini yuritmoqda.

Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti-davlat tomonidan moliyalashtiriladi va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lif va tarbiyanining davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lif tarbiya xizmatini to'rsatuvchi tashkilot.

Nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti-nodavlat ta'lif xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lif va tarbiya sohasida ta'lif va tarbiya xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarini asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

1. Har bir bola uchun maktabgacha ta'lif va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi.

2. Har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi.

3. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lif, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning oila hamda maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyaviy ta'sirning birligi.

4 Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lif va tarbiya berish uyg'unligi.

5 Bolaning shaxsiy rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv.

6. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lifning izchilligi hamda uzlucksizligi.

7. Ta'lif va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi.

8. Ta'lif tarbiya jarayoning shaffofligi va ochiqligi.

9. Maktabgacha ta'lif va tarbiya mazmun, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanishi xususiyatlariga hamda sog'lig'ini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif ishlari shu prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhlarga bo'lingan holda ta'lif jarayoni tashkil etiladi. Guruhlar bolalarni yoshiga mos ravishda tashkil qilinadi.

- 1 Kichik yosh guruhlar 3 -4 yoshli bolalar.
- 2 O'rta yosh guruhlar 4-5 yoshli bolalar.
- 3 Katta yosh guruhlar 5-6 yoshli bolalar.
- 4 Tayyorlov yosh guruhlari 6-7 yoshli bolalar.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida guruhlar shu tartibda tashkil qilinadi. Bolalarni guruhlarga bo'lishdan ko'zlangan maqsad bolalarni yoshiga mos ravishda xonalar jihozladi, markazlar ham bolalarning yoshiga mos ravishda tashkil qilinadi. Ta'limi faoliyatlarda ularning vaqtini ham bolalarning yoshiga mos ravishda tashkil etiladi. Ilk qadam davlat o'quv dasturi asosida tashkil etilgan oy, hafta mavzulari asosida mashg'ulotlar ham bolalarning yoshiga mos ravishda tashkil qilinadi. Ta'limi faoliyatlarning hafta davomida oy va yil davomida o'tilishi va ularning necha marta o'tilishi ham bolalarni yoshiga mos ravishda tashkil etiladi. Ta'limi faoliyatlar kichik guruhlarda 10-15 daqiqa, o'rta guruhlarda 15-20 daqiqa, katta guruhlarda 20-25 daqiqa, tayyorlov guruhlarida 25-30 daqiqa qilib belgilangan bu ham bolalarning jismoniy ruxiy psixologik rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabga tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ta'limi faoliyatlar quydagilardan iborat.

1. Jismoniy tarbiya.
2. Musiqa.
3. Xoreografiya.
4. Tasviriy faoliyat.
5. Konstruksiyalar tuzish applikatsiya
6. Loydan yasash.
7. Elementar matematika.
8. Fan va tabiatshunoslik asoslari ekologiya.
9. Nutq o'stirish va yozish malakalarini rivojlantirish.
10. Savodxonlikka o'rgatish.
11. Xorijiy til.
12. Badiiy adabiyotlar.

Maktabga tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ta'limi faoliyat turlari

shulardan iborat. Bu faoliyatlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda hafta davomida belgilangan tartibda tashkil etiladi. Faoliyatlarni tashkil qilishda maktabgacha ta'lif davlat standarti hamda takommillashtirilgan ilk qadan davlat o'quv dasturi asos bo'la oladi. Maktabga tayyorlov yoshida bolalar o'zlarini mustaqil tuta oladi, harakatlarini boshqara oladi, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro muloqotga kirisha oladi, atrofdagi voqealarni hodisalarga o'zini fikrini va munosabatini bildira oladi shuning uchun bu yoshda bolalar har bir faoliyatda erkin qatnasha oladilar. Kichik yosh davriga nisfatan bu yosh davrida faoliyatlar vaqtini ham uzaytiriladi bolalarning erkin ishlashi uchun shart sharoitlar yaratish talab qilinadi. O'quv dasturida belgilangan mavzular ham bolalarni yosh xususiyatlaraidan kelib chiqqan holda chuqurroq o'rganiladi va bolalar bilan fikr almashib ishslash tavsiya qilinadi. Bolalarni maktab ta'limga sifatli tayyorlashda maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning 5 ta rivojlanish sohalari hamda ularning ko'rsatkichlari ham hisobga olinadi bu ko'rsatkichlar bolalarning rivojlanish xaritasida o'z aksini topadi. Bolalarning rivojlanish xaritasi-ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasini yuritish uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi, dastlabki- yil boshida, oraliq-o'quv yili o'rtasida, yakuniy-o'quv yili yakunida amalga oshiriladi. Bu hujjat asosida maktabga tayyorlov yoshli bolalar qanday malakalarga ega va qaysi malakalarni bajara olmaydi shularni asoslab beradi. Rivojlanish xaritasini yuritishdan asosiy maqsad maktabgacha ta'lif tashkilotlari va boshlang'ich ta'lif uzlusizligini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lif tashkilotidan chiqishda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik holatini shu xarita orqali o'rganiladi. Maktabga tayyorlov deganda bolada tayanch kompetensiyalar va rivojlanish sohalarining kompetensiyalari shakllanganligi tushuniladi. Ushbu xarita maktabgacha ta'lifning har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda bolaning beshta yo'nalishi bo'yicha ko'rsatkichlari asoslab boriladi. Bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasi otonalarning iltimosiga ko'ra 1-sinf o'qtuvchisiga taqdim etilishi mumkin, bu tavsiya tarzida bo'lib bolani maktabgacha ta'lifdan boshlang'ich ta'lif bosqichiga o'tishi, shuningdek bolaning 1-sinfda rivojlanishiga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga

o'qtuvchi uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning rivojlanish xaritasi quyidagi imkoniyatlarni beradi: maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoning muvafaqqiyatli va samaradorligini aniqlaydi, boshlang'ich sinf o'quvchisining bolaning boshlang'ich maktabga muvafaqqiyatli moslashishi va yanada samarali rejalshtirishga asos bo'ladi. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotidan maktabga chiqqanida unda muhitga moslashish davri bo'ladi shu davrdan yaxshi va samarali o'tib olishi uchun maktabgacha ta'lim va maktab o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda bola muhitga moslashtiriladi. Bolaning ruhiy, jismoniy, psixologik jixatlarini o'rganish va unga yondasha olish uchun rivojlanish xaritasidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usul ham bolani maktab ta'limiga sifatli tayyorlash uchun vosita bo'ladi. Bundan tashqari respublikamizda har bir maktab yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli va samarali tayyorlashni yo'lga qo'ysh maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashni ta'minlash maqsadida Majburiy bir yillik guruhrar tashkil etildi. Vazirlar mahkamasining 2020-yil 9-maydagi qroriga asosan bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashni ta'minlash maqsadida hududlarda majburiy bir yillik ta'lim joriy etildi va o'z faoliyatini olib bormoqda. Tashkil etilgan guruhlarda 6- 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'limga qamrab olish va ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash asosiy vazifa qilib olingan. Bundan ko'rindiki bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri. Bu jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va samarali tashkil etish bugungi kundagi tarbiyachidan talab qilnadigan asosiy talab. Tarbiyachi bolalarga sifatli va zamonaviy talablar asosida ta'lim jarayonini tashkil qilishni bolalar hamda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda faoliyatni talab etiladi. Shuning uchun bugungi zamon tarbiyachisi ijodkor, kreativlik qobiliyatini shakllantirgan va o'zining imidjiga, kiyinish madaniyatiga, muomala odobiga ega bo'lishi bugungi kun talabi hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi qonuni. 2019 –yil.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

802-sonli qaror.2020-yil 22-dekabir.

- 3 Takommilashtirilgan ilk qadam davlat o'quv dasturi.
- 4 Vazirlar mahkamasining 2020-yil 9-maydagi qarori.